



NOORGANOGEN QO'RG'OSHIN ELEMENTI MIQDORINING O'ZGARISHI BILAN BOG'LIQ ENDEMIK VA KASB KASALLIKLARI

Tuychiyev Muxriddin Sharofiddin o'g'li
122 guruh Davolash 2 son
Email: mucriddint@gmail.com
Ilmiy rahbar: **Mamadoliyev Ikromjon**
Samarqand davlat tibbiyot universiteti
Email: ikromjon.mamadoliev@mail.ru

Annotatsiya. Butunjahon mehnatni muhofaza qilish tashkilotining 1964-yildagi 124-konferensiyasida birinchi marta kasb kasalliklari ro'yxati qabul qilindi va bu ro'yxatga keng tarqalgan zararli omillar ta'sirida rivojlanuvchi umumma'qullangan an'anaviy kasb kasalliklari kiritildi. 1980-yilda 66- butunjahon konferensiyasida ushbu ro'yxat qayta ko'rib chiqildi. Hozirgi vaqtda butunjahon mehnatni muhofaza qilish tashkilotining a'zolari bo'lgan 25 mamlakat ko'rsatilgan konvensiyani qayta ko'rib chiqib tasdiqladilar. 1990-yilning 22-mayida Yevropa komissiyasi 90/326/YeS tavsiyasini qabul qildi va kasb kasalliklarining ro'yxatini tasdiqladi. Lekin hozirgacha kasb kasalliklarining qabul qilingan umumiy va yagona tasnifi yo'q. Butunjahon mehnatni muhofaza qilish tashkilotining a'zosi bo'lgan har bir mamlakat o'zining kasb kasalliklar ro'yxatini tasdiqlaydi va ulaming oldini olish hamda bemorlarni ijtimoiy himoya qilish choratadbirlarini belgilaydi.

Kalit so'zlar: pnevm okoniozlar, silikoz, siderosilikoz, antrakosilikoz, kasb kasalliklari, Q o'rg'oshin, intoksikatsiya patogenetik, silikozda kremniy dioksid.

Dolzarbliigi: Kasb kasalliklari kelib chiqishida ishlab chiqarish muhiti yoki mehnat jarayonining noxush omillari ta'siri hal qiluvchi ahamiyatga ega. Ko'pchilik kasb kasalliklarining klinik ko'rinishi o'ziga xos alohida belgilarga ega emas, shuning uchun ham kasal bo'lgan kishining mehnat sharoiti to'g'risidagi aniq ma'lumotlar kasallikning kelib chiqishida kasbiy omilning etiologik rolini aniqlashga yordam beradi. Kasb kasalliklari inson organizmiga u yoki bu kasbiy-ishlab chiqarishning zararli omillari ta'siri natijasi hisoblanadi (masalan. silikozda kremniy dioksid changi, zaharlanishlarda sanoatdagi zaharli moddalar va b.). Shu bilan bir qatorda shunday kasalliklar mavjudki, ular kasbiy hamda atrof-muhitning boshqa omillari ta'sirida rivojlanishi mumkin. Birinchi holatda ular kasbiy (masalan, bronxial astma kimyo sanoati ishchilarida) va ikkinchi holatda umumiy (masalan, uy changi ta'siridan rivojlangan bronxial astma) kasallik hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasida amal qiluvchi kasb kasalliklarining ro'yxati etiologik prinsipga asoslangan bo'lib, Sog'liqni saqlash vazirligining maxsus sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan va 100 dan ortiq kasallikni o'z ichiga olgan.

Tadqiqot material va usullari: Kasb kasalliklari etiologiyasi bo'yicha 5 guruhga bo'linadi: 1. Kimyoviy omillarning ta'siridan rivojlangan kasalliklar: o'tkir va surunkali zaharlanishlar va ulaming asoratlari, teri kasalliklari (kontakt dermatit,



fotodermatit. toksik melano-dermiya va boshqalar(1-rasm). 2.Ishlab chiqarish aerzollarining ta 'siridan rivojlangan kasalliklar: pnevm okoniozlar, silikoz, siderosilikoz, antrakosilikoz, asbestoz, karbokoniozlar, changli bronxit va boshqalar(2-rasm). 3.Fizik omillar ta 'siridan rivojlangan kasalliklar: vibratsiya kasalligi, elektrooftalmiya. katarakta, koxlear nevit, nur kasalligi va boshqalar. 4. Jismoniy zo 'riqishlar. organ va tizimlarning zo 'riqishi bilan bog 'liq kasalliklar: koordinator nevrozlar, periferik nerv tizimining kasalliklari, bo'yin va bel-dumg'aza radikulopatiyalari, yelka epikondiliti va b. Bachadonning pastga siljishi, oyoqlarda venalaming varikoz kengayishi, ovoz boylamlarining zo'riqishi natijasida kelib chiqqan kasalliklar (sumnkali laringit) va boshqalar. 5.Biologik omillar ta 'sirida rivojlangan kasalliklar: yuqumli va parazitar kasalliklar - tuberkulyoz, brutsellez, virusli gepatit, disbakterioz, teri kandidomikozi, visseral kandidomikoz va boshqalar.



1-2.rasm Teri va o'pka sil kasalliklari (kontakt dermatit, fotodermatit, pnevm okoniozlar).

Tadqiqot natijalari: Qo'rg'oshin va uning noorganik birikmalari sanoatda juda keng ishlatiladigan metallardan biri hisoblanadi. Ular mashinasozlikda, asbobuskunalar ishlab chiqarishda, radioelektronikada (qo'rg'oshin bilan payvandlash), akkumulatyor, kabel ishlab chiqarishda, tipografiya sanoatida (qo'lda yoki linotip mashinalarda harf terish), rangli va qora metallarni eritishda, chinni, sopol va billur, qo'rg'oshinli bo'yoqlar ishlab chiqarishda va boshqa sohalarda ishlatiladi. Sanoatda qo'rg'oshinning quyidagi noorganik eritmaları ishlatiladi: qo'rg'oshin oksidi (PbO), qo'rg'oshin xromat ($PbCrO_4$), qo'rg'oshinli galenit (PbS), qo'rg'oshin xlorid ($PbCl_2$) va h.k. Qo'rg'oshin qo'llaniladigan ishlab chiqarish sohaslarida, asosan, uning aerzol ko'rinishidagi, y a'ni havoda qo'rg'oshin bug'larining kondensatsiyalanishi va oksidlanishi tufayli hosil bo'ladigan qo'rg'oshin oksidi mayda zarrachalarining ta 'siri kuzatiladi. Ishlab chiqarish sohaslarida qo'rg'oshin organizmga asosan ingalatsion yo'l bilan ta'sir qiladi. Qo'rg'oshin organizmga teri va me'da-ichak yo'li orqali ham kirishi mumkin. Ishlovchilarning



ovqatlanish ratsionida kalsiy, temir va oqsil miqdori kam bo'lsa, qo'rg'oshinning me'da-ichak yo'li orqali so'rilishi oshadi. Nafas yo'llari orqali tushgan qo'rg'oshin va uning birikmalari bevosita qonga so'riladi va organizmda bir qator o'zgarishlar ro'y beradi. Me'dada xlorid kislota ishtirokida eriydigan birikma qo'rg'oshin xloridiga aylanadi. Ichakning ishqorli muhitida yog' kislotalari vositasida qo'rg'oshin va uning birikmalari qo'rg'oshinning yog'li tuzini hosil qiladi. U o'z navbatida o't (safro) yordamida emulsiyaga aylanadi. Qo'rg'oshinning mayda zarrachalari ichakning shilliq pardalari tomonidan singdirib olinadi, so'ngra qopqa vena kapillarlar va ichakning limfatik yo'llari orqali umumiy qon oqimiga tushadi. Jigarga tushgan qo'rg'oshin jigar hujayralari tomonidan so'rilib, asta-sekin o't bilan birga ajralib chiqadi. Qo'rg'oshin qonda yuqori dispers holida qo'rg'oshinning kolloid ko'rinishidagi fosfatlar va albuminatlari sifatida aylanib yuradi, ular o'z navbatida qo'rg'oshinning noorganik fosfatlari orasida eritrotsitlar va qon plazmasining oltingugurt saqlovchi oqsillarining o'zaro ta'siri natijasida hosil bo'ladi. Bu moddalar ko'pgina a'zolarida erimaydigan qo'rg'oshinning uch asosli fosfat ko'rinishida yig'iladi. Qo'rg'oshin kumulativ ta'sir etuvchi zaharlar toifasiga kiradi. Qo'rg'oshinning salmoqli qismi suyaklarning trabekulalarida to'planadi, bu lining suyak to'qimalaridan kalsiy tuzlarini siqib chiqarishi bilan tushuntiriladi. Bundan tashqari, qo'rg'oshin mushaklar, jigar va buyraklar, eritrotsitlarda yig'ilish xususiyatiga ega. Ulaming ozgina qismi taloq, miya, miokard va limfa tugunlarida to'planadi. Odatda, qo'rg'oshin depodan asta-sekin, ba'zan esa qo'rg'oshin bilan ishlash to'xtatilgandan so'ng ham bir necha yil davomida ajralib turadi. Ayrim ekzogen va endogen omillar (ichkilik ichish. interkurrent kasalliklar, jarohatlar, fizioterapevtik muolajalar, ovqatlanish tartibining buzilishi, kislota-ishqor muvozanatining buzilishi va h. k.) Qo'rg'oshindan zaharlanish patogenezi. Qo'rg'oshinning politrop ta'sir etuvchi zaharli moddalar turkumiga kirishining o'zi uning patogenetik mexanizmi ko'p qirrali ekanligini bildiradi. U larning ichida yetakchi o'rin porfirin va gem biosintezining buzilishidadir. Shuni astoydil ta'kidlab o'tish kerakki, porfirin va gem sintezining buzilishiga olib keluvchi sanoatdagi barcha zaharlar ichida qo'rg'oshin o'ziga xos alohida o'rin tutadi. Qo'rg'oshin ta'sirida porfirin va gem sintezi birlamchi xarakterga ega va intoksikatsiya patogenetik mexanizmining hal etuvchisi hisoblanadi. Porfirin biosintezi universal biologik jarayonlarning biri ekanligi bizga ma'lum, ya'ni porfirin metallar bilan birga, kompleks ko'rinishda (metallporfirin) gemoglobin va mioglobin hamda hayot uchun muhim b o'lg an energenetik fermentlarning (V va S sitoxrom lari, sitoxromoksidaza, katalaza, peroksidoza) asosini tashkil qiladi.



Xulosa. Qo'rg'oshindan zaharlanishning profilaktikasi-bu texnik, sanitar-gigiyenik, shaxsiy gigiyena choralari va davolash profilaktika ladbirlaxini o'tkazishdir. Y a'ni qo'rg'oshin va uning birikmalarini kam toksik moddalar bilan almashtirish, ishlab chiqarish jarayonini mexanizatsiyalash va germetizatsiyalash, ratsional ventilatsiya, xonalarni mexanik tozalash kabilar shular jumlasidandir. Shaxsiy gigiyena tadbirlaridan katta ahamiyatga ega bo'lgan respiratorlardan foydalanish, maxsus kiyimlar, uksus kislotasining sust eritmalarida qo'llami yuvish kabilami o'tkazish maqsadga muvofiqdir. Davolash-profilaktika tadbirlaridan qo'rg'oshin bilan muloqotda bo'lgan ishlovchilarni vitaminlar bilan davolash, yil davomida 2 martadan kam bo'lmagan va 1 oy davomida har kuni vitamin C qabul qilish, tarkibida pektin saqlovchi (olma, olxo'ri va boshqa sharbatlar) tavsiya etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mahmudova Sh.K., Iskandarova M.S. Kasb kasalliklari. - T 1996.
2. Nuritdinov E. N. Odam fiziologiyasi //Toshkent, Aloqachi. – 2005. – T. 48.
3. Komilova N., Ravshanov A., Muhammedova N. Tibbiyot geografiyasi va global salomatlik //O'quv qo'llanma. – 2018.
4. Tojiyev M., Nig'matov H. Hayot faoliyati xavfsizligi //Toshkent. Tafakkur bo'stoni. – 2012.